XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 7-yanvar VII-17-2-12-218-K/26 Tuproqqal'a tumani

Tuproqqal’a tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga koeffitsiyentlar miqdorini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- ва 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda tuman soliq inspeksiyasinig 2025-yil 22-dekabrdagi P-08524-sonli yozishmasi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2026-yil 1-yanvardan:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si” raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **JIMALYAZOV AKMAL ORTIQOVICH**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 7-yanvardagi
VII-17-2-12-218-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Tuproqqal’a tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.0	1.0	1.2	1.2

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 7-yanvardagi
VII-17-2-12-218-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Tuproqqal’a tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2